



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Bobomurodova Latofat Elmurodovna,
Choriyeva Shahina Shavkat qizi**

*Innovatsion texnologiyalar universiteti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent*

Samarqand davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

INNOVATSION METODLAR ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Annotasiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda innovatsion ta'limning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol o'yinlar, STEAM yondashuvi, loyihaviy va muammoli ta'lim metodlari orqali bolalarning ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish yo'llari tahlil qilingan. Maqolada tarbiyachining innovatsion yondashuvi bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va yangi g'oyalarni ilgari surish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi asosiy omil sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim, kreativ tafakkur, maktabgacha yosh, interfaol metodlar, STEAM texnologiyasi, ijodkorlik.

DEVELOPING CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH INNOVATIVE METHODS

Abstract. This article examines the role and importance of innovative education in the development of creative thinking in preschool children. The article also analyzes the ways of forming children's creative abilities using modern pedagogical technologies, interactive games, STEAM approaches, project-based and problem-based teaching methods. In the article, the innovative approach of the educator is indicated as a key factor in the development of children's independent thinking skills, creative search and the promotion of new ideas.

Keywords: innovative education, creative thinking, preschool age, interactive methods, STEAM technology, creativity.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение инновационного образования в развитии креативного мышления у детей дошкольного возраста. Также проанализированы пути формирования творческих способностей детей с помощью современных педагогических технологий, интерактивных игр, подход STEAM, проектных и проблемных методов обучения. В статье инновационный подход воспитателя указан как ключевой фактор в развитии у детей навыков самостоятельного мышления, творческого поиска и выдвижения новых идей.

Ключевые слова: новационное образование, креативное мышление, дошкольный возраст, интерактивные методы, технология STEAM, творчество.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – yosh avlodni yangicha fikrlaydigan, ijodkor, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Buning uchun esa an'anaviy yondashuvlardan tashqari, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish zarur. Innovatsion ta'lim — bu yangicha pedagogik fikrlash, ilg'or texnologiyalar va metodlardan foydalanish orqali o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tizimdir. Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning eng qulay bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning tasavvuri, qiziqishi, bilishga bo'lgan ehtiyoji va ijodiy salohiyati jadal shakllanadi. Shu bois tarbiyachining o'z ishida innovatsion metodlardan – interfaol o'yinlar, STEAM texnologiyasi, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish, loyiha asosidagi faoliyat kabi usullardan foydalanishi bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur ishda innovatsion ta'limning mohiyati, maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar hamda ularning amaliy ahamiyati yoritiladi

Innovatsion ta'lim zamonaviy pedagogik jarayonni yangilovchi va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or yondashuvdir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning kreativ tafakkurini rivojlantirish uchun turli innovatsion metodlar va texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Bu metodlar bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning mustaqil fikrlash, muammoni hal etish va ijodiy yechim topish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi

Innovatsion metodlar tarbiyachiga o'quv-tarbiya jarayonini jonlantirish, bolalarning qiziqishini oshirish va ularni faol ishtirok etishga undash imkonini beradi. Bunday yondashuv orqali bola tayyor bilimni emas, balki uni mustaqil izlab topadi, tajriba asosida o'z xulosasiga keladi. Shu jarayon kreativ tafakkurning shakllanishi uchun asosiy omil hisoblanadi

Adabiyotlar tahlili

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Tadqiqotchilar ta'kidlaydilar, bolalarda kreativ tafakkurni shakllantirish jarayoni an'anaviy o'qitish usullaridan farqli ravishda yangicha, interfaol va tajribaga asoslangan metodlarni talab etadi

S.Akhmedovaning "Maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar" asarida bolalar rivojida ta'lim jarayonini interfaollashtirish, texnologiyalardan oqilona foydalanish va tarbiyachining yangicha yondashuvi orqali ijodkorlikni rivojlantirish yo'llari keng yoritilgan. Muallif fikricha, innovatsion metodlar nafaqat o'qitish jarayonini qiziqarli qiladi, balki bolalarning tafakkurini faol holatga keltiradi.[1]

U.Abdusattorovanning "Maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida ijodiy fikrlashga o'rgatishni takomillashtirish" mavzusidagi maqolasida Bolaning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Maktabgacha yosh davri ijodiy faol shaxsni shakllanishi uchun eng samarali davri, chunki aynan mana shu davrda psixik jarayonlar progressive o'zgarishlar kechadi va shaxsiy fazilatlar tezkor rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o'yinlar yordamida amalga oshirilishi ta'kidlab o'tilgan. [2]

L.Bobomurodovanning "Texnik ijodkorlik va dizayn" o'quv qo'llanmasida zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar, kompyuterli o'qitish, muammoli o'qitish, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar, ijodiy namunalar xususida mulohazalar yuritilgan.[3]

U.Abdusattorovanning yana bir "Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatishning nazariy va metodologik asoslari" nomli maqolasida kreativ fikrlash tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: Kreativ fikrlash — bu yangi g'oyalarni yaratish, muammolarni yangi usullar bilan hal qilish va mavjud bilimlarni yangi kontekstda qo'llash qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish, ularning umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. [4]

Asosiy qism

Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol o'yinlar, STEAM texnologiyasi, loyiha asosida o'qitish, muammoli vaziyatlar yaratish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi innovatsion usullar keng qo'llanilmoqda. Interfaol o'yinlar bolalarni erkin fikrlashga va ijodiy harakat qilishga o'rgatadi. STEAM texnologiyasi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika yo'nalishlarini birlashtirgan holda bolalarda tizimli va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Loyiha asosidagi faoliyat bolalarni biror mavzuni chuqur o'rganishga, o'z g'oyalarni amalda sinab ko'rishga yo'naltiradi. Muammoli vaziyatlar orqali esa bola mustaqil qaror qabul qilish va muammoni hal etish malakasini egallaydi. Axborot texnologiyalari, xususan interaktiv taqdimotlar, o'quv multfilmlar va raqamli o'yinlar bolalarda yangi g'oyalarga nisbatan qiziqishni oshiradi. Kreativ tafakkurni rivojlantirish jarayonida tarbiyachining o'rni beqiyosdir. Tarbiyachi innovatsion ta'limning bosh tashabbuskori sifatida bolalar uchun qulay va ijodiy muhit yaratadi. Erkin muloqot, savol-javob, guruhviy ishlar, ijodiy topshiriqlar va amaliy mashg'ulotlar orqali bolalar yangilik yaratishga undaladi. Tarbiyachining o'zi ham

zamonaviy fikrlaydigan, ilgʻor metodlarni biladigan va ularni amaliyotda samarali qoʻllay oladigan mutaxassis boʻlishi muhimdir

Innovatsion metodlar asosida taʼlim olgan maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati rivojlanadi, yangi gʻoyalarni ilgari surish istagi kuchayadi, muammoni turli jihatdan hal etish koʻnikmasi shakllanadi. Shuningdek, jamoada ishlash, oʻz fikrini aniq ifodalash va bilishga boʻlgan qiziqish ortadi. Natijada bola ijodiy faol, oʻziga ishonchli va yangilikka intiluvchan shaxs sifatida shakllanadi

Innovatsion taʼlim - muayyan tizimning tuzilishini, mazmunini oʻzgartirishga qaratilib, taʼlim yoki oʻquv, dars jarayonida mavjud muammoni yangicha taʼlim, yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qoʻllanilib, anʼanaviy taʼlim sifatiga nisbatan samarali natijani beradi. [5]

Innovatsion taʼlim zamonaviy taʼlim tizimining muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib, u pedagogik jarayonni yangilash, oʻquv faoliyatini samarali tashkil etish va bolalarda ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha taʼlim muassasalarida innovatsion metodlardan foydalanish orqali bolalarda mustaqil fikrlash, kuzatish, tahlil qilish, muammoni yechish va yangi gʻoyalarni ilgari surish koʻnikmalari rivojlanadi. Innovatsion metodlar taʼlim jarayonini faollashtiradi, bolalarni oʻqitishning markaziga aylantiradi va ularda bilishga boʻlgan tabiiy qiziqishni kuchaytiradi. Tarbiyachi bunday metodlardan foydalanish orqali har bir bolaning individual qobiliyatlarini aniqlaydi va uni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Natijada bola oʻz fikrini erkin ifoda etadigan, yangi yechimlar topa oladigan ijodkor shaxs sifatida shakllanadi

Maktabgacha taʼlimda keng qoʻllaniladigan innovatsion metodlardan biri bu interfaol oʻyinlardir. Oʻyin jarayonida bola yangi bilimlarni amaliy faoliyat orqali egallaydi, tafakkuri va tasavvuri kengayadi. Shuningdek, STEAM texnologiyasi ham bolalarda ilmiy va ijodiy fikrlashni uygʻunlashtirishda muhim rol oʻynaydi. Bu yondashuv fan, texnologiya, muhandislik, sanʼat va matematika kabi yoʻnalishlarni birlashtirib, bolalarda tizimli va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.

Loyiha asosidagi oʻqitish esa bolalarni mustaqil izlanishga undaydi. Bola kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida muayyan mavzu boʻyicha tadqiqot olib boradi, oʻz gʻoyasini amalda sinab koʻradi. Bu jarayon nafaqat bilim beradi, balki ijodkorlik va masʼuliyatni ham shakllantiradi. Shuningdek, muammoli vaziyatlar yaratish metodlari bolalarda qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash va turli yechimlarni taqqoslash koʻnikmalarini rivojlantiradi

Axborot texnologiyalaridan foydalanish ham innovatsion taʼlimning ajralmas qismidir. Interaktiv taqdimotlar, oʻquv multfilmlar, raqamli oʻyinlar va vizual materiallar bolalarning eʼtiborini jalb etadi, ularning idrok va eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, texnologik vositalar yordamida har bir bolaning qiziqishiga mos individual oʻquv muhitini yaratish mumkin. Tarbiyachining roli bu jarayonda beqiyosdir. U bolalarning qobiliyatini yuzaga chiqarish, ularni ijodiy fikrlashga undash, yangilik yaratishga ilhomlantirish orqali innovatsion taʼlimni amalga oshiradi. Tarbiyachi oʻzi ham doimo izlanishda boʻlib, yangi metodlar va ilgʻor tajribalarni oʻz ish faoliyatiga tatbiq etishi kerak. [6]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlardan samarali foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir. Bunday ta'lim jarayoni bolalarda mustaqillik, ijodkorlik, o'z fikrini erkin ifodalash va yangilikka intilish kabi sifatlarni shakllantiradi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda innovatsion ta'limning o'rni beqiyosdir. Innovatsion metodlar orqali bola nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtiradi, balki mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va yangi g'oyalarni yaratish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Interfaol o'yinlar, STEAM texnologiyasi, loyiha asosidagi faoliyat va muammoli vaziyatlar yaratish kabi usullar bolalarda ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni turli yo'llar bilan hal etish malakasini rivojlantiradi

Tarbiyachining innovatsion yondashuvi va pedagogik mahorati bolalarning ijodiy salohiyatini oshirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash bolalarni ijodkor, mustaqil va faol shaxs sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Umuman olganda, innovatsion ta'lim bolalarda kreativ tafakkurini rivojlantirish va ularning shaxsiy rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Akhmedova, S. Maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Ta'lim nashriyoti, 2020. – 35–42-betlar.
2. Abdusattorova U. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida ijodiy fikrlashga o'rgatishni takomillashtirish" mavzusidagi maqolasi INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE. 4.06.2024
3. Bobomurodova L. "Texnik ijodkorlik va dizayn" fanidan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. SamDU-2022. ISBN 978-9943-8851-6-5. Samarqand, 67 b
4. Abdusattorova U. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'YIN FAOLIYATI YORDAMIDA KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI maqolasi. International scientific journal. 2025 yil
5. Bobomurodova L. Innovation ta'lim jarayonida bo'lajak texnologik ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining kasbiy-metodik ijodkorligini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2022
6. Imametdinova. R. "Bolalarning ijodiy qobiliyatlari". O'quv qo'llanma. 2006.y